



# O'ZBEKİSTON TERAPİYA AXBOROTNOMASI



ТЕРАПЕВТИЧЕСКИЙ ВЕСТНИК  
УЗБЕКИСТАНА

№ 2, 2023

# **«ICHKI KASALLIKLARNI TASHXISLASH VA DAVOLASHDA INNOVASION TEHNOLOGIYALAR»**

(Akademik k.Yu.YULDASHEV 90 yilligiga bag'ishlangan)

XALQARO TERAPEVTLAR ANJUMANI

## **TEZISLARI**

**19–20 MAY 2023 ЙИЛ, ТОШКЕНТ**

---

## **ТЕЗИСЫ**

МЕЖДУНАРОДНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ ТЕРАПЕВТОВ  
**«ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ  
В ДИАГНОСТИКЕ И ЛЕЧЕНИИ  
ВНУТРЕННИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ»**

(посвященная 90-летию академика ЮЛДАШЕВА К.Ю.)

**19–20 МАЯ 2023 ГОДА, ТАШКЕНТ**

# СОДЕРЖАНИЕ

## КАРДИОЛОГИЯ

KORONAR ARTERIYALARNING NOOBSTRUKTIV ZARARLANISH BILAN O'TKIR KORONAR SINDROMNING ST ELEVATSIYALI KO'RINISHI Abdukomilov A.M., Srojidinova N.Z. ....	13
ALOHIDA VA QO'SHILIB KELGAN XAVF OMILLARNING YURAKNING ISHEMIK KASALLIGI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI Ismailov K.Y., Ro'zimov X.I. ....	13
REVMATOID ARTRITDA YURAK ISHEMIK KASALLIGINI KECHISH XUSUSIYATLARI Mamasiddiqova S.B., Xidoyatova M.R., Mirxamidov M.V., Nurmuhammedova N.S., O'rroqova Z.U. ....	14
YURAK ISHEMIK KASALLIGI: STENOKARDIYANING O'T-TOSH KASALLIGI KECHISHIGA TA'SIRI Qodirova Sh.A. ....	15
YURAK ISHEMIK KASALLIGI, SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGI VA 2 TIP QANDLI DIABET KASALLIGI BILAN OG'RIGAN BEMORLAR GURUHIDA SITAGLIPTIN/METFORMIN PREPARATINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH Trigulova R.X., Parpibayeva D.A., Musayeva M.A., Turbanova U.V., Sultonova D.A. ....	15
KAROTID ATEROSKLEROZI RIVOJLANGAN, SIMPTOMLI VA SIMPTOMSIZ KECHUVCHI BEMORLARNING TURLI BIOSUBSTRATLARIDA SINK HAMDA QON ZARDOBIDA MMP-9 VA TIMP-1 MIQDORI Usmanova Z.A., Rozixodjaeva G.A. ....	16
НЕКОТОРЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ЛИПИДОВ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ПАРАМЕТРОВ СЕРДЦА ПАЦИЕНТОВ, НУЖДАЮЩИХСЯ В РЕВАСКУЛЯРИЗАЦИИ МИОКАРДА Абдуллаев А.Х., Орзиеев Д.З., Аляви Б.А., Узоков Ж.К., Курмаева Д.Н. ....	17
ОБ ЭФФЕКТИВНОСТИ НЕФАРМАКОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В КОМПЛЕКСНОМ ЛЕЧЕНИИ И РЕАБИЛИТАЦИИ БОЛЬНЫХ КОРОНАРНОЙ БОЛЕЗНЬЮ СЕРДЦА Абдуллаев А.Х., Аляви Б.А., Узоков Ж.К., Пулатов Н.Н., Курмаева Д.Н. ....	18
ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ ФАКТОРОВ КАРДИОМЕТАБОЛИЧЕСКОГО РИСКА У ЛИЦ МОЛОДОГО ВОЗРАСТА С АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИЕЙ Атакоджаева Г.А., Миноварова Ч.А. ....	19
ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ ПОЧЕК У БОЛЬНЫХ С ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ С ПРОМЕЖУТОЧНОЙ ФРАКЦИИ ВЫБРОСА Атакоджаева Г.А., Коракулова З.Т. ....	19
ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ ПОЧЕК У БОЛЬНЫХ С ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ С ПРОМЕЖУТОЧНОЙ ФРАКЦИИ ВЫБРОСА Атакоджаева Г.А., Коракулова З.Т. ....	20
РЕАБИЛИТАЦИЯ ПОСЛЕ АОРТО-КОРОНАРНОГО ШУНТИРОВАНИЯ. ОБЗОР ЛИТЕРАТУРНЫХ ДАННЫХ (эпидемиология по казахстану и мировой популяции) В ПРАКТИКЕ Байдүйсен С.Б., Сулейменов А.К. ....	21
ИССЛЕДОВАНИЕ ПОЧЕЧНОЙ ФУНКЦИИ НА УРОВНЕ ПРОКСИМАЛЬНЫХ КАНАЛЬЦЕВ У БОЛЬНЫХ С ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ Гадаев А.Г., Пирматова Н.В., Тургунова М.У. ....	21
ПРОФИЛАКТИКА ТРОМБОЭМБОЛИЧЕСКИХ ОСЛОЖНЕНИЙ В АМБУЛАТОРНЫХ УСЛОВИЯХ У ПАЦИЕНТОВ С ПОСТОЯННОЙ ФОРМОЙ ФИБРИЛЛЯЦИЕЙ ПРЕДСЕРДИЙ Игамбердиева Р.Ш. ....	22
СТРУКТУРНО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СЕРДЦА У ПАЦИЕНТОВ ПОЖИЛОГО И СТАРЧЕСКОГО ВОЗРАСТА С ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ ПОЧЕК И ФИБРИЛЛЯЦИЕЙ ПРЕДСЕРДИЙ Игамбердиева Р.Ш. ....	23
ИЗУЧЕНИЕ АГРЕГАТНОГО СОСТОЯНИЯ КРОВИ ПРИ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА В СОЧЕТАНИИ САХАРНОГО ДИАБЕТА 2-ТИПА Иманкулова Д.А., Аляви А.Л. ....	23
ИЗУЧЕНИЕ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ БОЛЬНЫХ, ПЕРЕНЕСШИХ СТЕНТИРОВАНИЕ Кадирова Г.Г. ....	24
ОЦЕНКА ВНУТРИСЕРДЕЧНОЙ ГЕМОДИНАМИКИ БОЛЬНЫХ, ПЕРЕНЕСШИХ СТЕНТИРОВАНИЯ КОРОНАРНЫХ АРТЕРИЯХ Кадирова Г.Г. ....	25
ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ У ПОЖИЛЫХ Кадырова Ш.А., Ходжанова Ш.И. ....	25

## **YURAK ISHEMIK KASALLIGI: STENOKARDIYANING O'T-TOSH KASALLIGI KECHISHIGA TA'SIRI**

QODIROVA SH.A.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston*

**Tadqiqod maqsadi.** yurak ishemik kasalligi (YuIK) stenokardiya bilan birgalikda kelgan o't-tosh kasalligi klinikasining kechish xususiyatlarni o'rganish.

**MATERIAL VA USLUBLAR.** 1-RKK ida davolangan o't-tosh kasalligi bilan yondosh kelgan YuIK qayd etilgan bemorlarning kasallik tarixi va tekshiruv usullari natijalari o'rganildi. Jami 38 ta bemor bo'lib, shulardan -18 tasi erkaklar, 20 tasi ayollar. Bemorlarning o'rtacha yoshi 45 yosh. O't-tosh kasalligi klinik belgilari, qorin bo'shlig'i ultra tovush tekshiruvi (UTT) natijalariga ko'ra tashxislandi.

Yurak ishemik kasalligi, jumladan, stenokardiya klinikasi og'riq xurujlari, davomiyligi hamda EKG va EXOKGda aniqlangan miokarddagi ishemiya belgilariiga asoslangan holda tashxislandi. Shuningdek, bemorlarning barchasida umum klinik laborator tekshiruvalar, qonning bioximik tekshiruvi: jigar fermentlari, xolesterin, lipid spektri, koagulogramma tekshirildi.

**Natijalar.** Biliar patologiyada quyidagilar aniqlandi: yurak sohasidagi og'riqlar 55% holda kuzatildi. Biliar patologiyali bemorlarda og'riqlar parhezga rioya qilmaganlikda yuzaga kelib, nitratlarga nisbatan rezistentlik yuzaga kelishi bilan o'ziga xos xususiyatga egaligi o'rganildi. Qonning bioximik tahlilida umumiylar xolesterin (60,8%), past zichlikdagi lipoproteidlar xolesterini (62,8%), aterogenlik indeksi

(60%) oshganligi, elektrokardiografiyada ST segmenti izoliniyadan 1-2 mmga og'ishi (32%), T tishchaning balandlashishi (25%), ishemiya belgilari (22%), distrofik va metabolik o'zgarishlar (35%) va chap qorincha gipertrofiyasi (47,5%), ekstrasistoliyalar (42%) holda kuzatildi.

Shuningdek, bemorlarda bu ikkala patologiyaning birgalikda kelishida xavf omillaridan: yog'li va yuqori kaloriyalı ovqat mahsulotlarini ko'p miqdorda qabul qilish-57%, giperxolisterinemiya-50%, semirish-65%, chekish-43%ni tashkil qildi.

**Xulosa.** Izlanishlar natijasi shuni ko'rsatdiki: yurak qon-tomir patologiyasi biliar patologiyaning, jumladan, o't-tosh kasalligining rivojlanishi va klinik kechishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biliar tizim va YuKning rivojlanishida yagona mexanizm mavjud bo'lib, giperxolesterinemiya va giperlipidemiya ateroskleroz va toshlarning shakkalanishida rol o'ynaydigan murakkab neyrogumoral va metabolik siljishlarga sababchi hisoblanadi.

O't pufagi patologiyasini davolash miokardning funksional holatini yaxshilashi mumkin, ammo, yurak qon-tomir tizimida yuzaga keladigan o'zgarishlarni normallashtirish esa yondosh keladigan biliar patologiyani o'z vaqtida erta aniqlash va samarali davolashni taqozo etadi.

## **YURAK ISHEMIK KASALLIGI, SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGI VA 2 TIP QANDLI DIABET KASALLIGI BILAN OG'RIGAN BEMORLAR GURUHIDA SITAGLIPTIN/METFORMIN PREPARATINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH**

TRIGULOVA R.X., PARPIBAYEVA D.A., MUSAYEVA M.A., TURBANOVA U.V., SULTONOVA D.A.

*Respublika ixtisoslashtirilgan kardilogiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi,  
Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston*

**Tadqiqotning maqsadi.** 2-tip qandli diabet va surunkali yurak etishmovchiligi (SY) bilan og'rigan bemorlar guruhida dipeptidil peptidaza-4 ingibitorlari (IDPP-4) / metforminin kardioprotektiv samaradorligini o'rganish.

**MATERIAL VA USULLAR.** Tadqiqotda  $62 \pm 1$ , 29 yoshli yurak yetishmovchiligi bo'lgan 2-tip qandli diabet bilan birga yurak ishemik kasalligi tashxisi qo'yilgan 50 nafar bemor (28 erkak va 22 ayol) ishtirot etdi. 30 (60%) bemorlar anamnezida miokard infarkti o'tkazgan, 50 (100%) arterial gipertenziya, 13 nafar chekuvchilar va bu bemorlar faqat erkaklar (27,5%); 31 (62,0%) 60 yoshdan katta bo'lgan, 26 (52%) kishida semizlik aniqlangan, shulardan -14 (50%) erkaklar va 12 (54,5%) ayollar. Tadqiqotda ishtirot etgan barcha bemorlarda dastlabki bosqichda va 3

oylik davolanishdan so'ng, Cardiosens apparatidan foydalangan holda 24 soatlik sutkalik qon bosimi monitoringi (SAQB) o'tkazildi. Tekshiruv dasturiga ochlik vaqtida aniqlangan glyukoza miqdori, ovqatdan keyingi glikemiya, glikerlangan gemoglobin (HbA1c), lipid spektri parametrlari, chap qorinchaning qon haydab berish ko'rsatkichi, antropometrik ma'lumotlar – TVI darajasini aniqlash kiradi. Bemorlar yurak ishemik kasalligi va surunkali yurak yetishmovchiligini davolash jarayonida klinik rekomendatsiyalarga muvofiq tibbiy yordam ko'rsatildi, qandli diabet kasalligini davolash uchun ular bir vaqtning o'zida kuniga 500 mg metformin va 50 mg sitagliptin kombinatsiyasini qabul qildilar.

**Tadqiqot natijalari.** Bemorlar davolanishni boshlashdan avval qon bosimi korsatkichi Sistolik

qon bosimi / Diastolik qon bosimi mos ravishda  $142,4 \pm 2,67$ / $86,9 \pm 1,5$  mm Hg. tashkil qildi. Qon bosimining kunlik monitoring natijalariga ko'ra, o'rtacha kunlik ko'rsatkichlar  $130,3 \pm 2,3$ / $80,9 \pm 1,2$  mm Hg ni tashkil etdi. 3 oydan so'ng sistolik qon bosimining o'rtacha kunlik darajasi  $126,2 \pm 1,3$  diastolik qon bosimi-  $80,2 \pm 0,8$  mm Hg. Tadqiqot davomida antropometrik ma'lumotlarda ijobiy tendensiya kuzatildi, TVI 33 dan 31 kg / m<sup>2</sup> gacha kamaydi. Chap qorinchaning qon haydab berish ko'rsatkichi  $56,3 \pm 1,25$  mmol/l dan  $58,1 \pm 1,11$  mmol/l ga o'zgardi.

Sitagliptin/metforminning kombinatsiyalangan terapiysi fonida barcha bemorlarda nahorgi glyukoza miqdori  $8,9 \pm 0,39$  mmol/l dan  $7,72 \pm 0,31$  mmol/l gacha o'zgargan ( $p < 0,05$ ); ovqatdan keyingi glyukoza miqdori  $13,4 \pm 0,66$  mmol/l dan  $10,9 \pm 0,43$  mmol/l gacha kamaydi ( $p < 0,001$ ).

**Xulosha.** Dipeptidil-peptidaza-4 ingibitorlari (DPP-4) va metforminning belgilangan kombinatsiyasi bilan bir vaqtida standart terapiyani qo'llash gemodinamik parametrga ijobiy ta'sir ko'ssatdi va bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshiladi.

## KAROTID ATEROSKLOROZI RIVOJLANGAN, SIMPTOMLI VA SIMPTOMSIZ KECHUVCHI BEMORLARNING TURLI BIOSUBSTRATLARIDA SINK HAMDA QON ZARDOBIDA MMP-9 VA TIMP-1 MIQDORI

USMANOVA Z.A., ROZIXODJAEVA G.A.

*Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi tibbiyot bosh boshqarmasining 1-sonli Markaziy klinik shifoxonasi, Toshkent, O'zbekiston*

**Tadqiqot maqsadi.** Karotid aterosklerozni yaqqol rivojlangan bemorlarda, anamnezida bosh miyada qon aylanishining o'tkir buzilishi (BMQAO'B) yoki tranzitor ishemik hujum (TIH) mavjudligi/yo'qligiga ko'ra, sinkning qon zardobi, soch, uyqu arteriyasining aterosklerotik pilakchalarini (ASP) bioptatidagi miqdorini hamda qon zardobida matriks metalloproteinazasi (MMP-9) va uning to'qima ingibitori (TIMP-1) konsentratsiyasini aniqlash.

**Material va usullar.** Ilmiy tekshiruvga 47 yoshdan 76 yoshgacha bo'lgan ( $62,23 \pm 1,18$  yosh) 30 nafar (27 ta erkak va 3 ta ayol) karotid aterosklerozni yaqqol rivojlangan, karotid endarterektoniya jarrohli amaliyoti o'tkazish uchun ko'rsatmalari bor bo'lgan bemorlar kiritildi. Patsientlar anamnezida BMQAO'B yoki TIH mavjudligi/yo'qligiga ko'ra, 2 guruhi bo'lindi: simptomli ( $n=18$ ) va simptomlsiz ( $n=12$ ). Qon zardobida sink miqdori «Zinc-Vital» (Rossiya) reagent to'plamlari yordamida Mindray BS-200 (Xitoy) bioximik avtomat analizatorda aniqlandi. Soch va ASPdagagi sink miqdorini aniqlash argon plazmasi bilan induktiv bog'langan optiko-emission spektrometriya usulida Optima 2100 DV (Perkin Elmer, AQSh) analizatorida bajarildi. Qon zardobidagi MMP-9 va TIMP-1 konsentratsiyalari immunoferment tahlili uchun standart test-tizim to'plamlari (Bender-Medsystems GmbH, Avstriya) yordamida spektrotometr Plate Reader (Hospitex Diagnostics, Italiya)da amalga oshirildi.

**Natijalar.** Simptomli kechuvchi bemorlarda qon zardobidagi sink miqdori ( $14,59 \pm 0,56$  mkmol/l)

simptomsiz patsientlarga ( $17,68 \pm 1,03$  mkmol/l) nisbatan 1,2 baravar pastroq bo'ldi. ASP tarkibidagi sink konsentratsiyasi ham simptomli bemorlarda ( $51,76 \pm 8,64$  mkg/g) simptomsiz patsientlarga ( $126,66 \pm 33,95$  mkg/g) qaraganda 2,4 baravar kamroq bo'ldi. Sochdagagi sink miqdori bo'yicha guruhi orasida statistik ahamiyatli farq topilmadi. Qon zardobidagi TIMP-1 miqdori esa, simptomli bemorlarda ( $2690,40 \pm 166,01$  ng/ml) simptomsiz kechuvchi patsientlarga ( $2178,32 \pm 166,73$ ) nisbatan 1,2 baravar yuqoriroq bo'ldi.

Simptomsiz kechuvchi bemorlar guruhi korrelyatsion tahlil o'tkazilganda, qondagi glyukoza miqdorining sochdagagi sink miqdori bilan yaqqol teskari bog'liqligi aniqlandi ( $r = -0,65$ ;  $r < 0,01$ ). Shuningdek, sinkning qon zardobi va sochdagagi miqdorlari orasida o'zaro kuchsiz teskari korrelyatsiya topildi ( $r = -0,39$ ;  $r < 0,1$ ). Zardobdagi MMP-9 miqdorining qon zardobidagi sink konsentratsiyasi bilan kuchli musbat bog'liqligi ( $r = 0,78$ ;  $r < 0,0001$ ) hamda sochdagagi sink miqdori bilan yaqqol teskari korrelyatsiyasi ( $r = -0,66$ ;  $r < 0,01$ ) aniqlandi.

**Xulosalar.** Shunday qilib, insult/TIH o'tkazgan bemorlar qon zardobida simptomsiz patsientlarga nisbatan TIMP-1 miqdori balandroq, sinkning qon zardobi va ASPdagagi miqdori esa kamroq bo'ladi. Qondagi glyukoza miqdorining oshishi sochdagagi sink miqdorining kamayishi bilan kuzatiladi. Qon zardobidagi MMP-9 miqdorining oshishi barobarida sinkning zardobdagi miqdori ham oshadi, sochdagisi esa kamayadi.